

## ZAMONAVIY XALQRO MUNOSABATLARDA “SOFT POWER” KONSEPSIYASINING AHAMIYATI

*Baratova Shoxsanam Xasan qizi*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

*“Xalqaro munosabatlar va jahon siyosati” yo‘nalishi*

*1-kurs magistranti.*

*E-mail: shoxsanamamonova@gmail.com*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada yumshoq kuch” konsepsiyasining ayrim nazariy jihatlarining muhokamasi va xalqaro munosabatlardagi davlatlarning “yumshoq kuch” resurslaridan foydalanishda ularning ijobjiy tomonlarini o‘rganish maqsad qilingan. Maqolada tarixiy, tahlil qilish, qiyosiy-siyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.Bundan tashqari maqolada rivojlangan davlatlarning tashqi siyosatida qo‘llaniladigan “yumshoq kuch” vositalari, shakillari va turlaridagi farqlari ko‘rsatilgan.

**Kalit so‘zlar:** Yumshoq kuch, qattiq kuch, Jozef Nay, jahon siyosati, tashqi siyosat, xalqaro munosabatlar, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Xitoy davlatlari.

**Metodlar:** tarixiy, tahlil qilish mantiqiy usul, qiyosiy-siyosiy tahlil usullari.

**Kirish:** Bugungi jadal rivojlanib borayotgan davrda davlatlarning boshqa mamlakatlarga ta’sir etish yo‘llari kengaymoqda. Hozirgi vaqtga qadar tashqi siyosatning deyarli asosiy quroli qattiq kuch “hard power” hisoblangan bo‘lsa XX asrning o‘rtalaridan boshlab xalqaro munosabatlarda yangi yo‘nalish rivojlanib, endi ta’sir o‘tkazishda kuch va zo‘ravonlik hamda cheklar orqali majburlashdan tashqari, o‘z tomoniga jalb qilishning turli iqtisodiy, madaniy va gumanitar ta’sir kuch yordamida, qo‘yilgan maqsadlarga erishish mumkinligi haqidagi “soft power” yumshoq kuch tushunchasi paydo bo‘ldi. Ammo hozirgi siyosiy jarayonlarda “hard power” starategiyasi hali hanuz o‘z ta’sir kuchini saqlab qolganini rad eta olmaymiz, ammo butun dunyoda ham “soft power”ning mavqeyi va ta’siri oshib borayotganligini alohida ta’kidlash ham joizdir.

### Natija va muhokamalar

Zamonaviy davrda “yumshoq kuch” xalqaro munosabatlardagi eng mashhur atamalardan biridir bo‘lib ko‘pchilik tahlilchi olimlar, o‘zlarining nutqlarida va ilmiy ishlarida ushbu atamadan foydalanadilar. “Soft power”-bu majburlovchi xarakterga ega bo‘lgan “hard power” dan farqli o‘laroq, ixtiyoriy ishtirok etish, uning modelini yoqtirish va jozibadorlik asosida istalgan natijalarni olish qobiliyatini nazarda tutadi.Bu atamani kiritgan amerikalik siyosatshunos Jozef Nayning fikricha, mamlakat tili va madaniyati, xalqaro munosabatlarda asosiy rol o‘ynaydigan, jahon siyosati va biznes aloqalariga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatuvchi siyosat bu “yumshoq

kuch”dir. “Soft power” atamasi birinchi marta Garvard universiteti professori Jozef Nay tomonidan 1990-yilda chop etilgan “Bound to Lead: The Changing Nature of American Power” kitobida kiritilgan. Keyinchalik u ushbu konsepsiyanı 2004 yilda “Soft power: Jahon siyosatida muvaffaqiyatga erishish vositalari” kitobida va “Yumshoq kuch va AQSh-Yevropa munosabatlari” maqolasida ishlab chiqdi. Ba’zan mamlakatlar jahon siyosatida o‘zi xohlagan natijalarga erishishni istaydilar hamda boshqa davlatlar – ularning qadriyatlaridan o‘rnak olib, farovonlik va ochiqlik darajasida intilishini va ularga ergashishlarini xohlaydilar. Shu sababli davlatlarni jahon siyosatiga ko‘proq jalg qilish, harbiy kuch yoki iqtisodiy sanksiyalar bilan tahdid qilish orqali ularni o‘zgartirishga majbur qilish ham muhimdir. Ammo “Soft power” boshqalarning afzalliklarini shakllantirish qobiliyatiga tayanadi. Katta tashkilotlarni faqat buyruqlar bilan boshqarish qiyindir. Hamjamiyatlik esa ularga umumiyligi maqsadlarga erishishda yordam berishni xohlaydigan do’stona va jozibali kuchning zamonaviy amaliyotlariga tayanadi”. Masalan so‘nggi yillarda Xitoy va Turkiya o‘z tili va madaniy ta’siri orqali Markaziy va Janubiy –sharqi Osiyo mamlakatlariga kirib bordi. Qisqa qilb aytganda bugungi kunda xitoy tilidan Taiwan mamlakati rasmiy ravishda foydalanadi. Huddi shunday holatni Turkiya davlati bilan etnolingvistik va madaniy jihatdan qardoshlik munosabatlariga ega bo‘lgan davlatlar timsolida ham ko‘rish mumkin. Jozef Nay “soft power” konsepsiyasini ishlab chiqar ekan uni mohiyatini Amerika tajribasida batafsil tushuntirib o‘tgan. Biroq “yumshoq kuch” dan boshqa davlatlar o‘z tashqi siyosatida foydalanishida qanday samarasi borligi to‘g’risida hali ham noaniqliklar mavjuddir. Yuqorida ta’kidlanganidek bugungi kunda xalqaro maydonagi kuchlar muvozanatini qattiq va yumshoq kuchlar shakillantirish sifatida tushiniladi. Agar davlatlar harbiy va iqtisodiy qudratni o‘z ichiga olgan qattiq kuchga murojat qilishsa bu “hokimiyatni amalga oshirishning ko‘rsatma yoki buyruq berish usuli” deb hisoblanadi. Ammo, Jeyms Medisonning keltirilgan “hamyon va qilich” iborasi yigirma birinchi asrda hokimiyatni amalga oshirish usuli endi yetarli bo‘lmasligini va harbiy kuch yordamida muammolar hal etilishidan ko‘ra uni ya’nada chigallashtirib yuboradi degan so‘zlarini ta’kidlash joizdir.

Bunday munozalarga qarshi Jozef Nay o‘zining “soft power” asarida shunday deydi, “Amerika o‘zining qattiq kuch manbalaridan tashqari hokimiyatga erishishning boshqa bilvosita yo‘li mavjudligini mamlakat jahon siyosatida o‘zi ma’qul ko‘rgan natijaga erisha olishini ta’kidlagan. Chunki boshqa davlatlar unga ergashishni xohlashini yoki bunday ta’sirnilarni keltirib chiqaradigan tizimga rozi bo‘lishini bayon etgan. Ushbu munozaralardan so‘ng, turli olimlar qattiq va yumshoq o‘rtasidagi farqni ko‘rsatadigan formulalarni ishlab chiqdilar. Metyu Freyzer quydagicha fikir bildiradi, “Qattiq kuch tahdid solidi, yumshoq kuch da’vat etadi. Qattiq kuch ko‘ndiradi, yumshoq kuch ishontiradi”. Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda mamlakatlarning “yumshoq kuch” lari

reytingida o‘zgarishlar kuzatilmoqda masalan: AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, kabi mamlakatlarga Xitoy, Karea, Yaponiya davlatlarining yetib olishi o‘zgarishlar ko‘lamini belgilaydi. Davlatlar tashqi siyosatida “yumshoq kuch” strategisini qo‘llash borasidagi ba’zi amaliy yondashuvlarga to‘xtalib o‘tsak.



**Amerika Qo‘shma Shtatlari** 2017-2020 yillar oralig’ida dunyo yetakchiligidan o‘z mavqeyini boy berishi turli sabablar bilan izohlansada ammo “Amerika demokratiyasini” tashqi siyosatga yoyishi “yumshoq kuch” vositalariga asoslanadi: Masalan, IELTS (Ing. International English Language Test System) uchun harakat qilayotgan yoshlar soning tobora ortib borishiga olib kelmoqda yoki bo‘lmasa OAV, Internet, kino sanoati ham Amerika tashqi siyosatini rivojlanishiga olib kelmoqda.

**Fransyaning** “yumshoq kuchi” esa boshqa davlatlarnikidan farq qiladi chunki uning “yumshoq kuchi” xalq diplomatiyasi bilan ifodalanadi. Masalan: Fransyaning mashhur adabiyoti, kino olami, nufuzli universitetlari, arxitekturasi va yuksak fransuz modasi Fransiyaga “yumshoq kuch” siyosatida yetakchilar qatorida qolish imkonini beradi.

Ushbu konsepsiyanı qo‘llash borasida Turkiya va Xitoy davlatlarining o‘z yo‘nalishlari va ustinxiliklari mavjuddir. Xitoy Respublikasi bundan o‘n yil oldin tashqi siyosatda “yumshoq kuch” salohiyatidan foydalanishni boshlagandi. Biz buni “Konfutsiy institut”lari misolida ko‘rishimiz mumkindir.

Turkiyaning ham bu siyosatda o‘z ustinxiliklari mavjuddir. Birinchi navbatda Turkiya madaniyati va ta’limini targ’ib qilishda ishlab chiqilgan loyihalarni (“TIKA”, “Turkiya Buruslari”) aytish mumkindir. Bundan tashqari Turkiya asosiy e’tiborini Shimoliy Afrika va Markaziy Osiyo davlatlariga qaratmoqda hamda mintaqaga davlatlari bilan hamkorlik shartnomalarini imzolamoqda. Bugungi kunda Turkiya o‘z tashqi siyosatini amalga oshirishda “hard power” dan ko‘ra “soft power” vositalaridan foydalanib kelmoqda.

### Xulosa:

Keltirilgan ma’lumotlardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki xalqaro maydondagi davlatlar tashqi siyosatini amalga oshirishda yumshoq kuch konsepsiyanining nazariy tahlil etishi bilan birga undan samarali foydalanish uchun

yetakchi davlatlar tajribasini o‘rganishlari lozimdir. Xususan bunga misol sifatida Amerika, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Turkiya kabi davatlarni keltirishimiz mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Joseph S. Nye Jr., Bound to Lead, P. 31,
2. Joseph S. Nye, Soft Power: The Means To Success In World Politics .  
<https://www.amazon.com/Soft-Power-Means-Success-Politics/dp/1586483064Joseph>
3. Jozeph Nye, “Hard, Soft, and Smart Power,” P. 565
4. Косенка С. И. «Мягкая сила» как фактор культурной дипломатии Франции // Знание. Понимание.